

Uzbekistan Airways aviaqatnovlari to'g'risida rasmiy xabar

2022 11 November

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati quyidagilarni xabar qiladi:

Bugun, 2022-yil 11-noyabr kuni Buxoro xalqaro aeroportida noqulay ob-havo sharoiti tufayli rejalashtirilgan HY023 Toshkent – Buxoro aviaqatnovi mahalliy vaqt bilan soat 07:30 ning o'rniga 10:49 da, HY024 Buxoro – Toshkent aviaqatnovi esa soat 09:30 ning o'rniga 12:48 da o'z yo'nalishlari bo'yicha jo'nab ketdi.

Shuningdek, jadval bo'yicha mahalliy vaqt bilan 11:45 da rejalashtirilgan HY091 Toshkent – Andijon aviaqatnovi soat 15:10 da o'z yo'nalishi bo'yicha jo'nab ketdi.

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati aviakompaniya uchun yo'lovchilar xavfsizligi yuqori o'rinda turishini eslatib o'tadi. Keltirilgan noqulayliklar uchun yo'lovchilar va ularni kutib oluvchilardan uzr so'raymiz.